

	7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b. 8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz. 9. Сайдазимова У.Т., Чой Со Ёнг и др. «Корейская литература». Учебное пособие. Ташкент, 2015. Axborot manbaalari 10. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali 11. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi) 12. www. Ziyonet.uz 13. http://www.philology.uz 14. http://altaica.narod.ru/t-korean.htm 15. http://www.naver.com/모더니즘/시의 경우.
7.	Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil “25” 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil “25” 08 dagi 452 - sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun mas’ullar: V.N.Kim – TDSHU “Koreys filologiyasi” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori.
9.	Taqrizchilar: U.T.Saydazimova – TDSHU “Koreys filologiyasi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori; O.J.Latipov – Nizomiy nomidagi TDPU “Rus tili va adabiyoti, uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, (turdosh OTM).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



**SHARQ XALQLARI ADABIYOTI POETIKASI
(KOREYA)**

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000	–	Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	120000	–	Gumanitar fanlar
Mutaxassislik:	5A120101	–	Adabiyotshunoslik (sharq tillari)

	anglash, nasriy va nazmiy asarlarning g'oyaviy tematikasini aniqlash, ijodkor va davr munosabatlari bo'yicha <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; talaba koreys va jahon adabiyotidagi jarayonlarni o'zaro bog'liqlik nuqtai nazaridan tahlil qilish; davr mahsuli – san'at asarini o'rganish; poetikaga ta'sir ko'rsatgan adabiyotning g'oyaviy-poetik mazmunini to'g'ri talqin qilish; koreys adabiyotida turli ijtimoiy-maishiy sharoitda yaratilgan asarlar poetikasini farqlay olish to'g'risida aniq <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: - ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlar tayyorlash; - individual loyihalar; - jamo bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Сайдазимова У.Т. Поэтика корейской поэзии. – Ташкент, 2013. 2. Ким В.Н. Теоретические вопросы специальности. – Ташкент, 2013. 3. Saydazimova U.T., Choy So Yong. Koreys adabiyoti. – Toshkent, 2015. Qo'shimcha adabiyotlar 4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11. 5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b. 6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.

	17. Yu Ji Xvan lirikasida poetik usullar va milliy poetik obrazlar
	18. Yun Dong Ju lirik qahramonining “g‘amginlik estetikasi”.
	Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.
	IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. XX asrning ikkinchi yarmi koreys nasrining obrazlar tizimi va syujet-kompozision tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari 2. Koreys adabiyoti poetikasi – filologik tahlil predmeti sifatida 3. XX asrning birinchi yarmi tanpxyon kichik sosolda nasriy asarlar taraqqiyoti tendensiyasi 4. Zamonaviy nasr badiiy matnida tarixiy, arxaik, neologizm, jargon va dialektik so‘zlarning qo‘llanilishi 5. XX asrning birinchi yarmi koreys she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari 6. XX asrning ikkinchi yarmi koreys she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	V Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: - koreys tilida adabiy asarlarni o‘rganishda nazariy bilimlarni qo‘llash; badiiy adabiyotda shiddatli o‘zgarishlar natijasida o‘zgargan inson qarashlari, tushunchalari, qadriyatlarini ajrata olish; so‘nggi yuz yil ichida mamlakatda ro‘y bergan siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar va ularning koreys xalqi tafakkur tarziga ta’siri masalalarin anglab yetish; badiiy obrazning real hayot bilan aloqasi qonuniyatlarini tadqiq etish haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo‘lishi</i>; - koreys adabiyotida qo‘llaniladigan badiiy tasvir vositalari, badiiy san’atlar, portretlar haqida bilishi; koreys mumtoz va zamonaviy adabiyotining jahon adabiyotidagi o‘rni va uning bashariyat taraqqiyotidagi ulushi; yangi she’riyatda shoir dunyosining kashfini

Fan/modul kodi 5ASAP225		O'quv yili 2020-2021	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Sharq adabiyotida poetikasi		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabada o'rganilayotgan mamlakat talabalarining milliy ruhi, mafkurasi va ijtimoiy ongining shakllanish jarayonlari tarixi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lgan holda mazkur mamlakat xalqi milliy ruhiga, adabiy jarayonlarga, turli adabiy oqim va yo'nalishlarga, taniqli adiblar ijodiga to'g'ri baho berish ko'nikmasini hosil qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarga koreys adabiyotshunosligi masalalari, badiiy asar tili, uslubi, janr xususiyati, nasriy va nazmiy janrlar doirasida ilmiy muammolar va ularni tahlil qilishni, ijodkor va davr munosabatlari, ijtimoiy-maishiy sharoitda yaratilgan nasr va nazm poetikasini tadqiq qilish va xulosa chiqarishni o'rgatishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Poetikaning asosiy tushunchasi. Tarixiy ocherk Poetika tushunchasining mazmun-mohiyati. Badiiy matn tuzilishi va badiiy adabiyot tili haqida fan.Tasviriy poetika. Tarixiy poetika. 2-mavzu. San'at xususiyatlari San'at – inson ma'naviy madaniyati va ong oqimi turi sifatida. San'at – tabiatga taqlid. Hayotni obrazlarda ifodalash. Obrazlar turi. San'at turlari va uning o'ziga xosliklari. 3-mavzu. Badiiy va tarixiy koreys nasri: Pak Insik va Sin Chxexo nazariy qarashlari An'anaviy qarashlar va Yevropa ta'sirida shakllangan yangi adabiy nazariya. Li Xejoning “Yapon va koreys tillarida asar yaratish haqida” traktati. “Tuban” janrning yangi imkoniyatlari. Koreyaga G'arb san'atining kirib kelishi. 4-mavzu. Yangi koreys nasri sin-sosolda shakl va mazmun o'zgarishi				

Yevropalashuv jarayoni. Milliy madaniyatni takomillashtirish uchun kurash. Fosh qiluvchi nasr. Didaktik nasr. Fantastik nasr. Ma'rifatparvarlik davrining yetakchi mavzulari.

5-mavzu. Koreys kichik nasri tanpxyon sosolda obrazlar tizimi va syujet-kompozitsion qurum poetikaning o'ziga xos xususiyati sifatida

Koreys epik janri sosolning uch turi. Zamonaviy nasr – tanpxyon sosolning o'ziga xos xususiyatlari. Asarlar mavzuining o'zgarishi. Yangi nasrning o'ziga xosliklari.

6-mavzu. Xaos va mafkuraviy kurash davri koreys adabiyoti poetikasi (1930-1940-yillar)

Vatan va vatan istiqloli uchun kurashga yo'g'rilgan she'riyat poetikasi. Shoirilar ideal darajasi. Ijod tabiati murakkabliklari.

7-mavzu. 1950-1960-yillar: mafkuraviy kurash va adabiyot o'rtasidagi munozarali masalalar

Hikoya janrining uslubiy xilma-xilligi. Adabiy guruhlar: "Uchqun", "Pxaskyula", "Yangi yo'nalish maktabi", "KPSF"larning asosiy yo'nalishlari va ijodiy metodlari.

8-mavzu. 1970-1980-yillar koreys nasrida "adabiy meynstrim" poetikasi

Faol kurashchi-qahramonlar yangi obrazi turlari. Mustaqillik haqida munozarali masalalar. Bo'lingan millat muammolarining chuqurlashuvi.

9-mavzu. O'rta asrlar koreys nazmi poetikasi

Adabiy jarayonlarda o'ng va so'l qanot kuchlar kurashi. "Bo'lingan millat" adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Harbiy nasrning mavzu jihatdan bo'linishi: front nasri, urush va uning salbiy oqibatlari nasri.

10-mavzu. Koreys she'riyati tuzilishida yangi shakllar

1970-1980-yillar she'riyatida ijtimoiy yo'nalish. "Ommaviy adabiyot" va "vositachi adabiyot"ning adabiy o'ziga xosliklari.

11-mavzu. Koreys romantizmi estetikasi

Koreys she'riyatining asosiy tuzilishi. Koreys she'riyatida metrik birlik. Koreys she'riyatida badiiy tasviriy vositalar. Og'zaki materialning kompozitsion tamoyili.

12-mavzu. Koreys modernizmining milliy xususiyatlari

Simvolizm va modernizm alohida adabiy yo'nalish sifatida. Koreys adabiyotida modernizm tendensiyalari taraqqiyotida simvolizmning o'rni. Li San ijodida syurrealizm. Chon Jien va Kim Gvangyun ijodida imajinizm.

13-mavzu. 1960-yillar koreys she'riyatida yangi oqimlar

"Angajir she'riyat"ning o'ziga xos xususiyatlari. Kim Su Yon, O Kyu Von, Xvan Ton Gyu, Ko Unlar she'riyati poetikasi. Shin Ton Yenning "Kum

daryosi" poemasi poetikasi.

14-mavzu. 1970-yillar koreys nazmi poetikasi

Ommaviy adabiyot va qarama-qarshiliklar. Ko Unning falsafiy qarashlari. Kim Gvan Gyuning badiiy mahorati.

15-mavzu. 1980-yillar nazmining o'ziga xosliklari

Eksprementalistlar va "shahar guruhlari". Ommaviy adabiyotning taraqqiy etishi. Dekonstruktiv she'riyat va yangi avlod she'riyati. Pak San Be, Nam Jin U va Kim Xen Do she'riyatida shahar lanshafti tasviri.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Hikoyalar tuzilishining kompozitsion xususiyatlari va syujet rivoji dinamikasi (Kim Mivol "Gid" va "Seul g'ori", Pak Mingyu "Biskvit")
2. Chxve Inxoning "Sarxushlar" va Xvan Sok Yenning "Sampoga yo'l" hikoyalarida ijtimoiy-axloqiy kolliziya
3. Kim Doninning "Olov sonatasi" hikoyasida obrazlar tizimi va badiiy konflikt xususiyatlari
4. Kim Sin Okning "Mujinga sayohat" va "Seul: qish, 1964 yil" hikoyalarida burch va baxt ma'naviy-etik muammolar
5. Koreys nasrida qadriyat-estetik kordinatlar mualliflik intensiyasini ifodalash sifatida (Li Mun Yol "Oltin qanotli qush", Kim Dongni "Oltin Budda")
6. Chxve Inxuning "Maydon" va Pak Kenrining "Ishonchsizlik asri" asarlarida ekzistensializm ilk kurtaklarining paydo bo'lishi
7. Kim Doninning "Surat va xat" va "Zaif g'ami" hikoyalari muhabbat obrazining milliy konsepti
8. Xyon Jingonning "Omadli kun" va Gyo Bon Uning "Tushdagi tush" to'plami hikoyalarida matnning sub'ekt ko'rinishi
9. Pak Vansonning "Marionetka tushi" va "Jannat bolalari" hikoyalarida obrazlar tizimi tipologiyasi
10. Kim Sovol she'riyatida milliy madaniy qadriyatlarning qayta tiklanishi
11. Kim Sovol lirikasida "g'am va umumjahon motami" mavzui
12. Kim Yen Nan va Pak Mok Vol romantik lirikasi poetikasi
13. Cho Men Xining romantik mizantropiyasi
14. Kim Kirim poetikasi – modernizmni o'zlashtirishning ilk bosqichi sifatida
15. Cho Chji Xun, Kim Chxun Su, Kim Su Yeng poetik olamida an'ana va novatorlik
16. So Jon Ju ijodida simvolizm texnikasi poetikasi